O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKINING PUL KREDIT SIYOSATI

Abduvahobov Shaxzod
Ilmiy rahbar: SamISI “Bank ishi” kafedrasi o‘qituvchisi
Umirqulova Sanobar
SAMISI talabasi

Anotatsiya: Bu maqolaning qisqacha mazmuni O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining pul kredit siyosati to'g'risida bo'lib, maqolada mamlakatimizning pul muomalasi va kredit siyosatida olib borilayotgan islohotlari, valyuta siyosati, kredit siyosati va boshqa muhim omillarga e'tibor qaratiladi hamda atroflicha yoritiladi.

Kalitso’zlar: O’zbekistonRespublikasi Respublikasi Bank tizimi, bank tizimi tarkibi, markaziy bank, tijorat banklari, pul muomalasi, kredit siyosati.

ASOSIY QISM

Markaziy bank „banklarningbanki“ (Milliy bank vaAQShda Federal rezervtizimi) mamlakatningjamikredittizimininazoratqiladi, davlatpul-kredits iyosatini amalga oshiradi va kredit stavkasini nazorat qiladi, naqd pul va qimmatbaho qog‘ozlar emissiyasi bilan shug‘ullanadi, mamlakatning oltin-valuta zahiralarini saqlaydi, davlatvatijoratbankigakreditlarberadi.

Pul-kredit siyosati - hukumatning pul muomalasi va kredit sohasida olib boradigan bosh yo‘li va mamlakat iqtisodiyoti barqarorligini va uning samarali faoliyatini ta’minlashga, pul tizimini lozim darajada mustahkam saqlab turishga qaratilgan chora-tadbirlari. Pul-kredit siyosati davlat iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi bo‘lib, odatda, uni Markaziy bank amalga oshiradi. Pul-kredit siyosati orqali muomaladagi ortiqcha pul massasi qisqartiriladi yoki ko‘pay-tiriladi, inflyasiyann pasaytirish chora-tadbirlari ko‘riladi. Markaziy bank pul-kredit siyosatini olib borishda pul bozoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zining boshqaruv vakolatlari yordamida va pul emissiyasi orqali ta’sir o‘tkazishi mumkin.

Pul-kredit siyosati bevosita va bilvosita vositalar orqali amalga oshiriladi. Bevosita vositalar — moliyaviy institutlardagi moliyaviy aktivlar narxlari (foiz stavkalari)ni yoki ular haj-mini to‘g‘ridanto‘g‘ri boshqarish orqali olib boriladi. Markaziy bank tomonidan tijorat banklaridagi mavjud depozit kurinishidagi pullarni hamda ular tomonidan beriladigan kreditlar narxlari va hajmi nazorat qili-nadi. Bilvosita vositalar — Markaziy bank tomonidan moliyaviy institutlar resurslarita bozor mexanizmlari (majburiy zaxiratalablari, ochiq bozordagi operatsiyalar, tijorat banklarini qayta moliyalash va Markaziy bankning hisob stavkasi, tijorat banklaridan depozitlarni qabul qilish va boshqalar) orqali iqtisodiyotdagi pul massasiga ta’sir etiladi.

Markaziy bank foydalanadigan vositalarning har biri foiz stavkalarining o‘sishiga, kreditlash va qarz olish hajmini kamaytirishga, lozim bo‘lganda foiz stavkalarini oshirishga yoki, aksincha, tushirishga xizmat qiladi. Ochiq bozordagi operatsiyalar, majburiy eng kam zaxiralarning bo‘lishi, hisobga olish siyosati, valyuta siyosati Pul-kredit siyosatining asosiy tarkibiy qismlarini tashkil etadi

Pul muomalasi — pulning bajarilgan ish, ko‘rsatilgan xizmatlar, sotib olingan tovarlar haqini to‘lash, hisobkitoblar va to‘lovlarni amalga oshirish, nafaqalar berish, qarzlarni qaytarish vositasi sifatida foydalanish jarayonidagi uzluksiz harakati. Pul muomalasi har bir mamlakat pul tizimi miqyosida amalga oshadi. Pul muomalasi naqd va nakd bo‘lmagan muomalaga bo‘linadi. Naqd pul bankdan chiqqach, korxona, tashkilotlar kassasiga va aholi ko‘liga o‘tadi. Oddisotdi vato‘lov harakatlari bajarilgach, yana bankka kaytadi. Naqd bo‘lmagan pul muomala-siga firma,

korxona, tashkilotlarning bankdagi hisobida turgan pulning harakati kiradi va bunday muomala chek, kredit kartochkasi, veksel, obligatsiya, sertifikat va boshqa vositalar harakati shaklida olib boriladi.pul muomalasi jarayonlariga ishtirok etadigan pullar 2 ga bo'linadi. 1-aktiv pullar,2-passiv pullar.

Kredit (lot. creditum — qarz, credo — ishonaman,maqullayman) — pul mablag‘lari, tovar va xizmatlarni kelishilgan ustama (foiz) to‘lab qaytarib berish sharti bilan ma’lum muddatlarga qarzga berish. Qarzga mablag‘ beruvchi tomon kreditor (davlat, bank, korxona, xususiy shaxs va boshqalar), ssuda oluvchi tomon esa debitor (qarzdor) deyiladi. Kredit kelishuvi qarzdan foydalanish shartlari kayd etilgan shartnoma bilan rasmiylashtiriladi. Kredit muomalasi qarz beruvchi va qarz oluvchi o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatdir. Lekin har qanday qarz munosabati ham Kredit bo‘la olmaydi. Kredit munosabatida olingan mablag‘ qaytarib berilishi, foydalanilgani uchun haq (kelishilgan foizda) to‘lanishi, muddatli, ma’lum tovar va nomoddiy aktivlar bilan ta’minlangan bo‘lishi, maqsadli ishlatilishi shart. Berilishi muddatlariga ko‘ra, qisqa muddatli (1 yilga qadar), o‘rta muddatli (1yildan 5 yilgacha), uzoq, muddatli (6 yildan ortiq) Kreditlarga bbo'linadi.

Kredit, bo‘sh turgan pul mablag‘larini ssuda fondi shaklida to‘plash va ularni pulga muhtoj bo‘lib turgan yuridik va jismoniy shaxslarga ishlab chiqarish va boshqa ehtiyojlari uchun ma’lum muddatga, foiz to‘lovlari bilan qaytarish shartida qarzga berish munosabatlarini ifodalaydi.

Kredit munosabatlarida uning barqaror bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Bunga erishish uchun mamlakatda kredit siyosati olib boriladi. Kredit siyosati tarkibida banklarning foiz siyosati va ajratilayotgani kreditlarning yo‘nalishlari, ularning qaytarilishini ta’minlash, kreditning samaradorligini oshirish, imtiyozlar, yuz berishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlar oldini olish tadbirlari katta rol o‘yvaydi. O‘zbekistonda tijorat banklarning kredit siyosati mamlakat iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlarini jadal rivojlantirishga yo‘valtirilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining markazlashtirilgan Kreditlari mamlakat mustaqilligini mustahkamlashga yo‘valtirilgan yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etishga ajratilmokda. Shuningdek, mamlakat tijorat banklari ham yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga kreditlar ajratish bilan birga kichik va o‘rta biznesni qo‘llabquvvatlashni ham amalga oshirmoqda.

Pul-kredit siyosati rejimlaridan foydalanishning xalqaro tajribasi

Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar markaziy banklari tomonidan keng qo‘llanilayotgan usullar inflyatsion targetlash, monetar targetlash, valyuta kursini targetlash va nominal yakorsiz rejimlarni o‘z ichiga oladi.

Inflyatsiyaning maqsadli ko‘rsatkichlariga erishish vazifasi aksariyat markaziy banklar uchun bosh maqsad hisoblansa-da, yuqorida qayd etilgan uslublar asosan tezkor va oraliq mo‘ljallarga qarab farqlanadi.

Xulosa: Xulosa qiladigan bo'lsak, Markaziy Bankning pul kredit siyosati hukumatning pul muomalasi va kredit siyosati borasida amalga oshirilayotgan keng islohotlari bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Demak, Markaziy bankning pul-kredit siyosati usullari xilma-xil bo‘lib, ularni joriy etishda mamlakatdagi ijtimoiy- iqtisodiy holat muhim o‘rin tutadi. Masalan, mamlakatda iqtisodiyotning pasayishi va ishsizlik darajasi yuqori bo‘lgan sharoitda Markaziy bankarzon pullar siyosatini qo‘llashi mumkin. Bunday siyosatning maqsadi kredit foiz stavkalarini pasaytirish orqali iqtisodiyotga pul taklifi va investitsiyalar hajmini oshirishga qaratilgan, bu albatta mamlakatdaiqtisodiyo‘sishvabandlikdarajasini oshirishga xizmat qiladi. Demak, iqtisodiyotda pul taklifini oshishi kredit foiz stavkalarini pasayishiga olib keladi, bunday sharoitda Markaziy bank ko‘pchilik hollarda davlatning qimmatli qog‘ozlarini sotib olishi, majburiy zaxira normasi va qayta

moliyalash stavkasi (hisob stavkasi) darajasini pasaytirishi lozim. Iqtisodiyotda inflyatsiya darajasi yuqori bo‘lgan hollarda Markaziy bank qimmat pullar siyosatini qo‘llaydi, buning asosiy maqsadi umumiy xarajatlar va umumiy taklifni qisqartirishga qaratiladi. Bunda Markaziy bank tijorat banklarning ortiqcha pul mablag‘larini sterilizatsiya qilish maqsadidadavlatningqimmatliqog‘ozlarinisotadi, majburiy zaxira va hisob stavkalari normasini oshiradi. Bu yo'llar bilan Pul-kredit siyosati sohasida yuqori natijalarga erishish imkoni mavjud bo'ladi.

Foydalanilganadabiyotlar:

1. O'z Me. Birinchi jild. Toshkent 2000-yil. - O'zbekiston Respublikasi Milliy Ensiklopediyasi
2..Abdullaeva SH.Z. Pul, kreditvabanklar. - T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007 yil
3. www.cbu.uz - O‘zRMBningrasmiyvebsayti;

WORDLY KNOWLEDGE